

ASQAD MUXTOR SHE'RLARINING LINGVOPOETIK TAHLILI

*Andijon davlat universiteti Filologiya va tillarni
o'qitish: O'zbek tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Tojixo'jayeva Madinabonu Shuxratbek qizi

Ilmiy rahbar: Tursunova Odinoxon

Tel: +998945479030

Email:tojixojayevamadinabonu@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek she'riyatining yorqin vakillaridan biri, O'zbekiston xalq yozuvchisi Asqad Muxtorning ijodi lingvopoetik jihatdan o'rganiladi. Tadqiqotda shoirning she'riy matnlaridagi so'z tanlovi, semantik og'ish, fonetik uyg'unlik, badiiy obrazlar tizimi kabi unsurlar tahlil qilinadi. Maqolada shoirning poetik til orqali insom ruhiyati, ichki kechinmalari va o'y-xayollarini ifodalash usullari anqilanadi. Natijada Asqad Muxtorning badiiy tili o'zbek she'riyatining lirik imkoniyatlarini boyituvchi hodisa sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: lingvopoetik tahlil, semantik parallelizm, metafora, antiteza, badiiy obrazlar tizimi, semantik og'ish

Аннотация

В данной статье лингвопоэтически исследуется творчество одного из ярких представителей узбекской поэзии, народного писателя Узбекистана Аскада Мухтора. В исследовании анализируются такие элементы, как выбор слов в поэтических текстах поэта, семантические отклонения, фонетическая гармония и система художественных образов. В статье рассматриваются способы выражения поэтом человеческой психологии, внутренних переживаний и мыслей через поэтический язык. В результате художественный язык Аскада Мухтора оценивается как явление, обогащающее лирические возможности узбекской поэзии.

Ключевые слова: лингвопоэтический анализ, семантический параллелизм, метафора, антитеза, система художественных образов, семантическое отклонение

Abstract

This article provides a linguopoetic analysis of the works of Asqad Muxtor, one of the prominent representatives of Uzbek poetry and a People's Writer of Uzbekistan. The study examines elements such as the poet's lexical choices, semantic deviation, phonetic harmony, and the system of artistic imagery in his poetic texts. The article explores how the poet conveys human psychology, inner experiences, and reflections

through poetic language. As a result, Asqad Muxtor's artistic language is evaluated as a phenomenon that enriches the lyrical potential of Uzbek poetry.

Keywords: linguopoetic analysis, semantic parallelism, metaphor, antithesis, system of artistic imagery, semantic deviation

Kirish

Asqad Muxtor she'rlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri (umuman, bu uning butun ijodiga xos xususiyat) falsafiy mulohazalarga boy, oddiy voqealardan ham katta fikr, salmoqli xulosalar chiqarilganidadir. "She'r – inja tuyg'ularning nozik ifodasi, she'r – ko'ngil rozi, qalb kechinmalari" kabi tushunchalar Asqad Muxtor she'riyatida o'zgacharoq mohiyat kasb etadi. Shoir lirikasi misolida aytadigan bo'lsak, she'r – hissiy tafakkur, ko'ngil falsafasi, she'r – fikrning tuyg'ularga o'ralgan go'zal suvrati.¹ Lingvopoetika adabiy matnni tahlil qilishning integrativ yo'nalishi bo'lib, unda tilshunoslik va poetikaning o'zaro aloqasi, so'zning estetik yukini o'rganish masalalari markazda turadi. Badiiy so'zning lingvistik va semantik qatlamlari shoir tafakkuri va ruhiy holatini yoritishda beqiyos rol o'ynaydi.² Shu jihatdan, Asqad Muxtor she'riyatini lingvopoetik tahlil qilish orqali nafaqat uning badiiy mahoratini, balki o'zbek tili poetik imkoniyatlarining kengligini ham ochish mumkin. Asqad Muxtor she'rlarida so'z oddiy aloqa vositasigina emas, balki shaxsning ma'naviy-ruhiy qiyofasini ochib beruvchi muhim hodisadir. Shoirning "Tug'ilish", "Umr", "Men yasharman", she'rlarida kuchli poetik vositalar orqali chuqur hayotiy mulohazalar chiqarsa, "Jimlik suroni" she'ri semantik parallelizmning yaqqol ko'rinishi sifatida ichki-kechinmalarning yorqin ifodasigina bo'lib qolmay, o'quvchiga ajib poetik-estetik zavq bag'ishlaydi.

Uning she'rlarida ishlatilgan epitet, metafora, alliteratsiya, annosans, antiteza kabi badiiy tasvir vositalari so'zning estetik qimmatini oshiradi. Ayniqsa, semantik og'ish, fonetik uyg'unlik va ritmik tuzilish Asqad Muxtor she'riyatining asosiy belgilaridan biridir. U so'z orqali nafaqat tasvir, balki hisni yaratadi. Shu bois, uning she'riy tili o'zbek adabiy tilining yangi estetik bosqichini aks ettiradi. Maqolaning maqsadi Asqad Muxtor ijodini lingvopoetik tahlil qilish orqali uning badiiy tili, so'z tanlovi, badiiy obrazlar tizimini aniqlashdir. Bu orqali shoirning ruhiy-estetik olami, badiiy obrazlarining ma'naviy-ruhiy qiyofasi, so'z tanlash mahorati ilmiy asosda ochib beriladi.

Asosiy qism

Adabiyot olamida ijodkorlar serqirra bo'lishi mumkin, ammo ularning ayni bir sohadagi izlanishlari, qoralamalari alohida eslanadi, ta'kidlanadi. Xususan, Shuhrat

¹ Behzod Fazliddin (2016). Vaqt insonsiz hech narsa! Toshkent:Yoshlik.

² Gulnoz Lolayeva Baxtiyarovna (2025). Sirojiddin Said she'rlarining lingvopoetik tahlili. Portugal: Scientific review of the problems and prospects of modern science and education.

o'zining realistik nasri bilan, G'afur G'ulom, asosan, lirikasi bilan, Fitrat dramatik asarlari bilan, Cho'lpon she'riyati bilan kitobxonlar e'tirofiga sazovor bo'lgan. Asqad Muxtor ham o'ta iste'dodli, serqirra shaxs sifatida nasr, nazm, publitsistika, tarjima, dramaturgiyada faoliyat olib borgan bo'lsa, ahamiyatli tomoni shundaki, u bu sohalarning barchasida ham birday muvaffaqiyatga erishdi. Uning romanlari qo'lma-qo'l o'qildi, she'rlari yod olindi, sahna asarlari muxlislar tomonidan iliq qarshilandi, tarjimalari jahon she'riyati durdonalarini o'zbek kitobxonlariga taqdim etdi. ³Shoir o'z she'rlarida chuqur mulohazakorlikka asoslangan kuzatishlarini aks ettirib bergan, deyish mumkin. Quyida biz uning ana shu chuqur mulohazakorlikka asoslangan bir necha she'rlarini lingvopoetik tahlilga tortamiz:

Vaqirlab go'sht qaynar qora qozonda,
 O'tov atrofida itlar sanqigan.
 Qizlar shivirlagan o'sha olonda
 Yangi qimiz hidi anqigan...

Asqad Muxtor bu she'rda qishloq hayotining tabiiy, jonli manzarasini yaratadi. Unda jimlik ichidagi hayot tovushi, ya'ni "suron" tasvirlanadi. Garchi jimlik hukm surayotgandek tuyulsa-da, aslida u hayot nafasi, tabiat harakati va inson hissi bilan to'la. Jimlik-bu mutlaq sukuna emas, balki ichki ohang hayot tovushi. Shu bois, she'rning "Jimlik suroni" deb nomlanishining o'ziyoq antitezali metafora sifatida shoir fikrini ochib beradi. "qaynar qora qozonda" so'zlaridagi "q" tovushining takrori alliteratsiyani hosil qilib, ovoz va holat effektini kuchaytiradi va o'quvchini o'sha holatga olib kiradi. "Vaqirlab", "sanqigan", "shivirlagan" fonetik tasvir vositalari she'rda jimlikni tovush orqali ifodalash g'oyasiga xizmat qiladi. Har bir misra tovush va hid sezgilarni uyg'unlashtirgan:

- 1-misra: eshitish sezgisi (vaqirlab);
- 2-misra: ko'rish va eshitish (o'tov atrofida itlar sanqigan);
- 3-4-misralar: sezish va hid bilish (qizlar shivirlagan, qimiz hidi anqigan).

Bu sinestetik ifoda, ya'ni tur sezgilarini aralashtirib berish orqali ko'p qatlamli tasvir hosil qilingan. She'rning mazkur to'rt misrasining o'ziyoq miniatura tarzida hayot suronini beradi, bu esa jimlikdagi tovushlar simfoniyasi – tabiat, inson va hayot uyg'unligi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Kuni kecha shu so'rda yotganimda

³ Haytboyeva Maftuna (2025). Asqad Muxtor she'riyatida hayot va umr haqida mulohazalar. Internatinoal online conferences: Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions.

Oy shu'lası tushmas edi yuzlarimga:
 Yaproqlarning titroq, yashil sharpalari
 Orom olib kelar edi ko'zlarimga.
 Bugun bo'lsa tanga-tanga nur tushipti.
 Mijjam horg'in, uyqu bermas yorug' yulduz.
 Birdaniga yuragim shuv etib ketdi:
 Kuz kelipti, kuz...

Shoirning "Umr" deb nomlangan ushbu she'rida ham chuqur hayotiy xulasolar aks ettirilgan bo'lib, lingvistik va poetik xususiyatlarga boy ekanligi bilan ajralib turadi. Oy shu'lası nurining tushmasligi shoirning bolalik onlari, ya'ni bahorni anglatishi bilan bir qatorda oy shu'lası yuziga tushadigan davrga, ya'ni kuzga "ha demay" yetib kelganligi, yoshlikning tugab, O'rta yosh davrining boshlanganligi ifodalaydi. Bu yerda shoir kuzning kelishidan emas, balki kuzdan keying faslning, qarilik faslining, yaqin qolganidan xavotirda. So'z tanlovi yuzasidan tahlilga olinadigan bo'lsa, "so'qmoq", "o'rmon", "yaproq", "nur", "yulduz" so'zlari she'rning manzaravuy asosini tashkil etadi. Kuz bilan bog'liq so'zlar: "titroq", "nur", "shuv etib" so'zlari orqali sokinlik, sovuqlik, o'tkinchilik kayfiyati berilgan.

So'zlarning tanlovi yumshoq, sokin, hissiy tovushlarga boy. Unda "sh", "s", "y" kabi shovqinli tovushlar ko'p ishlatilgan, bu esa she'rning jimjit, o'ychan ohangini kuchaytiradi.

She'r musiqasini yaratgan asosiy tovushlar:

1. "Sh", "s", "y" – shivirlovchi, sokin ohanglar bo'lib, jimlik, kuz shamoli effektini beradi.

2. "T", "k" tovushlari sovuqlik va o'tkinchilikni bildiradi. (Masalan: titroq, ketdi, kuz).

So'z tartibi ham emotsional ifoda uchun o'zgartirilgan. Oy shu'lası tushmas edi yuzlarimga o'rniga Yuzlarimga oy shu'lası tushmas edi deyish mumkin edi, ammo shoir hissiy urg'uni yuzlarimga so'ziga yuklash orqali ma'noni kuchaytirgan.

She'rda tabiat manzarasi orqali ruhiy holat beriladi. Lirik qahramon o'tgan kunning iliqligi bila hozirgi kunning sovuqligini taqqoslaydi. "Kuz kelipti" degan so'nggi satr ichki og'riqni, sokin chekinishni ifodalaydi. Ritm jihatdan misralar yumshoq oqimga ega, so'z ohanglari o'zaro uyg'un, go'yo kuzgi shabada kabi sekin oqadi.

Xulosa

Tahlillar natijasida aniqlandiki, Asqad Muxtor poetik tili o'zbek tilining badiiy imkoniyatlarini kengaytirgan, uni semantik, fonetik va estetik jihatdan yangi bosqichga olib chiqqan. Uning ijodi orqali lingvopoetik yondashuvning samaradorligi, ya'ni til elementlari va estetik mazmun birligining badiiy qiymati amalda isbotlanadi. Shunday qilib, Asqad Muxtor she'rlari o'zbek she'riy tafakkurining yangicha bosqichini ifodalaydi. Uning asarlarida so'z — shunchaki aloqa vositasi emas, balki inson

ruhining ifodachisi, tuygʻuning ovozi, estetik goʻzallikning markazidir. ⁴Shu maʼnoda, shoirning lingvopoetik merosi oʻzbek adabiyotining keyingi rivojida ilmiy va badiiy jihatdan muhim manba boʻlib xizmat qiladi. Asqad Muxtor dunyoga kelib mol-dunyo, boylik emas, boy mulohaza, solim aql orttirdi, oʻzgalarning tashvishi bilan yashay oladigan qalbni koʻtarib yurdi. Uning niyati qalbini soʻnggi hujayrasigacha xalq dardida yondirish edi, shoirning vafoti kitobxonlar-u adabiyotshunoslarning ham yuragini yondiradigan voqea boʻldi. Asqad Muxtor oʻzbek sheʼriyatida oʻz falsafasi bilan oʻchmas iz qoldirdi. Uning hayot va umr haqidagi qarashlari ham ana shu falsafaning bir qismi sifatida oʻquvchilar uchun oʻziga xos yoʻllanma sifatida abadiy yashaydi.⁵

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behzod F . Vaqt insonsiz hech narsa! - Toshkent: “Yoshlik”, 2016
2. Lolayeva G.B Sirojiddin Said sheʼrlarining lingvopoetik tahlili. - Portugal: “Scientific review of the problems and prospects of modern science and education”, 2025
3. Haytboyeva M. Asqad Muxtor sheʼriyatida hayot va umr haqida mulohazalar. - Internatinoal online conferences: “Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions”, 2025

⁴ Gulnoz Lolayeva Baxtiyarovna (2025). Sirojiddin Said sheʼrlarining lingvopoetik tahlili. Portugal: Scientific review of the problems and prospects of modern science and education.

⁵ Haytboyeva Maftuna (2025). Asqad Muxtor sheʼriyatida hayot va umr haqida mulohazalar. Internatinoal online conferences: Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions.